

XALQ CHOLG‘U IJROCHILIGI AMALIYOTIDA IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

*Andijon davlat pedagogika instituti musiqa
ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi
Botirova Feruza*

Anotatsiya: Xalq cholg‘u ijrochiligi milliy musiqa madaniyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u an’anaviy musiqa san’atini namoyon etish va yosh avlodga o‘tkazishda muhim o‘rin tutadi. Cholg‘u ijrochisi nafaqat sozlarni chalish mahoratiga ega bo‘ladi, balki o‘z ijrosi orqali xalqning tarixiy, ma’naviy va madaniy qadriyatlarini ham namoyon etadi. Ustoz-shogird munosabatlari, ijro uslublari va asboblarning turli xilligi xalq musiqa an’analarini saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada xalq cholg‘u ijrochiligining ijtimoiy ahamiyati, san’atdagi o‘rni va tarixiy rivojlanish bosqichlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Xalq musiqasi, Cholg‘u ijrochisi, Milliy an’analar, Musiqiy madaniyat, Ijro mahorati, Ustoz-shogird an’anasi, Madaniy meros, San’at tarixi.

DEVELOPMENT OF CREATIVITY IN THE PRACTICE OF FOLK INSTRUMENTAL PERFORMANCE

*Andijan State Pedagogical Institute music
Education direction 3-Stage Student Botirova Feruza*

Anotation: folk instrument performance is an important component of national musical culture, and it plays an important role in the manifestation and transfer of traditional musical art to the younger generation. The instrument player not only has the skill of playing the strings, but also displays the historical, spiritual and cultural values of the people through his performance. Master-disciple relationships, performance styles, and a wide variety of instruments serve to preserve and develop folk musical traditions. The article explores the social significance of folk instrument performance, its place in the arts, and the stages of historical development.

Keywords: Folk Music, Instrumental Performance, national traditions, musical culture, performance skills, master-disciple tradition, cultural heritage, art history.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ В ПРАКТИКЕ НАРОДНОГО ИНСТРУМЕНТАЛЬНОГО ИСПОЛНТЕЛЬСТВА

Андижанский государственный педагогический институт

музыки направление образования студентка

3 курса Ботирова Феруза

Аннотация: народное инструментальное исполнительство-важная составляющая национальной музыкальной культуры, играющая важную роль в проявлении и передаче подрастающему поколению традиционного музыкального искусства. Инструменталист не только овладевает навыками игры на словах, но и через свое исполнение демонстрирует исторические, духовные и культурные ценности народа. Взаимоотношения учителя и ученика, разнообразие стилей исполнения и инструментов служат сохранению и развитию народных музыкальных традиций. В статье исследуется общественное значение народного инструментального исполнительства, его место в искусстве и этапы исторического развития.

Ключевые слова: народная музыка, инструменталист, национальные традиции, музыкальная культура, исполнительское мастерство, традиция учителя-ученика, культурное наследие, история искусства.

Kirish

Xalq cholg'ulari orkestri — milliy musiqa san'atining muhim va boy shakllaridan biri bo'lib, u xalq an'analari, urf-odatlar va madaniy qadriyatlarini o'z ichiga oladi. Orkestr tarkibidagi yakkaxon ijrochilar (solistlar) bu san'at turining yuksak darajada namoyon bo'lishiga katta hissa qo'shadilar. Musiqa insonni xush fazilatli, samimiy, ziyrak, ko'ngilchan, yuksak ahloq, madaniyat hamda ma'naviyat egasi qilib shakllantirishda katta imkoniyatlar taqdim etadi. Bundan tashqari, musiqa o'quvchilar ruhiyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning eshitish qobiliyati, ko'rish xotirasi, tafakkuri va diqqati rivojlanadi. Insonning kamolga yetishida musiqaning o'rnini taraqqiyotning barcha bosqichlarida yaqqol namoyon bo'lib kelgan. Boy musiqiy merosimiz, maqomlar va xalq qo'shiqlari bir necha asrlardan buyon xalqni ma'naviy yuksaltirishdek oliyanob maqsadga xizmat qilib kelmoqda. "Ma'lumki, har bir millatning milliy musiqiy cholg'ulari, xalqlarni musiqa madaniyatidagi eng noyob yodgorliklari sifatida qadrlanib kelingan. Xalq amaliysan'ati namunasi ko'rinishida betakror ustalar tomonidan yaratilib kelinayotgan musiqiy cholg'ular, davrlar osha avaylab-asralib kelingan. Eng muhimi bu jarayon o'tgan davrning har bir zamonasiga mos holda takomillashib, rivojlanib kelingan." Barcha xalqlar qatorida o'zbek xalqi ham milliy qadriyatlari, an'analari negizida yuzaga kelgan musiqiy cholg'ulariga egadir. Mashhur pedagog V.A. Suxomlinskiy ta'kidlaganidek, "Musiqiy tarbiya — bu faqat musiqachini emas, balki komil insonni tarbiyalashdir." Musiqa orqali bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uni estetik, axloqiy va intellektual jihatdan boyitish mumkin. Musiqa mashg'ulotlari o'quvchilarda

estetik didni shakllantirib, ularni barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishlariga yordam beradi.

Dars jarayonida, shuningdek, darsdan tashqari musiqiy to‘garaklarda bolalar turli xalq va klassik cholg‘u asboblarni o‘rganishga katta qiziqish bildiradilar. Bu cholg‘ularning tashqi ko‘rinishi, ohangi va ularning tovushlari bolalarda nafaqat ijrochilikka qiziqish uyg‘otadi, balki musiqiy eshitish, his qilish va tafakkurni rivojlantiradi. Musiqa orqali bolalar go‘zallikni anglash, undan bahra olish, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi farqlarni tushunishga intiladilar. Dars davomida ular dunyoqarashlarini kengaytirib, klassik musiqa, adabiyot, opera va balet san‘atidan zavq olishni o‘rganadilar. Shu tariqa, o‘quvchilar ruhiy-ma‘naviy boyliklarni to‘plash va ulardan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar¹.

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili

Xalq cholg‘ulari qadimdan O‘rta Osiyo xalqlari hayoti va mehnat faoliyatiga chuqur singib ketgan bo‘lib, insonning kundalik turmushining ajralmas qismiga aylangan. Qo‘shiq, o‘yin va kuylar asosan ushbu cholg‘ular jo‘rligida ijro etilib, xalqning turli marosimlari hamda oilaviy tantanalarida keng qo‘llanilgan. Ayniqsa, karnay, surnay, doira, nog‘ora va chindovul kabi an‘anaviy cholg‘u asboblari bayramlarda va madaniy tadbirlarda keng tarqalgan.

O‘rta asrlar davrida musiqa ijrochiligi o‘ziga xos rivojlangan bo‘lib, cholg‘uchilar bir nechta cholg‘u asboblarni mohirona chalish bilan birga, o‘zlari musiqa asarlari yaratgan, ba‘zida esa she‘rlar ham bitganlar. Ular o‘z zamonasining yetuk san‘atkorlari hisoblangan. O‘sha davrlarda musiqa sohasi tobora ixtisoslashib, maxsus ustaxonalarda ustoz-shogird an‘analari asosida rivojlanib borgan. Shu jarayonda yangi cholg‘u asboblari namunalarining vujudga kelishi ham aynan shu tarixiy bosqichga to‘g‘ri keladi. Xalq cholg‘ulari orkestri — doyra, nay, doira, qashqar rubobi, g‘ijjak, tor, sato, kamoncha, dutara, qonun kabi milliy sozlardan tashkil topgan ansambl yoki orkestr shaklidir. Arxeologik qazishmalarda topilgan haykalcha va artefaktlarni o‘rganish, shuningdek, asrlar davomida vujudga kelgan madaniy yodgorliklarni tahlil qilish — bugungi kunda musiqashunoslik sohasida faoliyat yuritayotgan tadqiqotchilar uchun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada mashhur olimlar — ye.E. Bertels, A.N. Boldirev, B.L. Riftin va A.A. Semyonovlar olib borgan ilmiy izlanishlar orqali qadimgi musiqa madaniyati haqida boy va qimmatli ma‘lumotlar jamlangan. Ayniqsa, M.ye. Masson rahbarligida o‘tkazilgan Ayritom va Termiz arxeologik ekspeditsiyalari, S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik tadqiqotlari, hamda Tojikistondagi arxeologik-etnografik ekspeditsiyalar (A.M.

¹ Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11. тини белгилайди.

Belenitskiy, M.M. Dyakonov, A.Yu. Yakubovskiyy rahbarligida) juda muhim manbalar hisoblanadi. Shuningdek, Janubiy Turkmanistondagi majmua ekspeditsiyasi ham o‘z hissasini qo‘shgan. O‘zbekiston Badiiy akademiyasi qoshidagi San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti tashabbusi bilan amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar (raqbari: G.A. Pugachenkova) orqali yurtimizdagi qadimiy madaniyatning yangi sahifalari ochildi. Mashhur tadqiqotchilar K.V. Traver va V.A. Meshkeris o‘z ishlarida Samarqand yaqinidagi Afrosiyob shaharchasida olib borilgan qazishmalar natijasida topilgan sozandalar haykalchalarini atroflicha tahlil qilganlar. Ular o‘z ishlarida lyutnya kabi cholg‘u asbobining so‘g‘d xalqi o‘rtasida juda mashhur bo‘lganini ilmiy asosda tasdiqlab o‘tganlar.

Taxlil va natijalar

Ijrochilik amaliyotida o‘z ustida ishlash samara berib kelayotgani buyuk ijrochilik maktabi nomoyondalari ijodida ham o‘z isbotini ko‘rsatib kelmoqda, shu o‘rinda mashhur bastakor, o‘z davrining mohir pianinochisi va taniqli ijrochisi Sergey Raxmaninov musiqiy mashg‘ulotlar zarurligini ta’kidlarkan, shunday degan edi: “Agar bir kun chalmasam — o‘zim sezaman, ikki kun mashq qilmasam — yaqin do‘stlarim payqaydi, uch kun chalmasam — tomoshabinlar buni darrov anglaydi.” Ushbu so‘zlar musiqa san’atida tinimsiz mehnat, doimiy mashq va o‘z ustida ishlash naqadar muhimligini aniq namoyon etadi. San’atkorning mahorati aynan muntazam shug‘ullanish va qat’iy intizom orqali yuksaladi.

Orkestr faoliyatida jonli ijro, milliy ohang va xalq ruhiyatini ifoda etuvchi kuylar orqali tomoshabinda katta ta'sir qoldiradi.

Yakkaxon ijrochilarning o‘rni va ahamiyati

- ❖ Orkestrdagi solistlar — alohida cholg‘u asbobida murakkab kuylarni ijro etuvchi mahoratli ijrochilardir.
- ❖ Ular orkestr ijrosini boyitadi, xalq ohanglarini yangi musiqa uslubida jonlantiradi.
- ❖ Yakkaxon ijro musiqani individual ruh, his-tuyg‘u va ijodiy o‘zgacha uslub bilan boyitadi.

Yakkaxon ijrochilarning mahorati

- ❖ **Texnik mahorati:** kuyni aniq, tezkor, mukammal va chuqur hissiyot bilan ijro etish qobiliyati.
- ❖ **Ijodiy yondashuv:** kuyni faqat nusxa sifatida emas, balki o‘z uslubi, ornomasi bilan boyitib ijro qilish.
- ❖ **Madaniy bilim va an'analarni bilish:** milliy musiqa uslublarini, maktablarini (masalan, Farg‘ona-Toshkent, Xorazm, Buxoro) his etib, ularga xos uslubda kuylash.

Musiqa o‘quvchining jamlanma rivojlanishida alohida va o‘rnini boshqa hych bir faoliyat bosa olmaydigan ta'sirga egadir. U avvalo bolaning hissiy dunyosiga ta'sir

qilib, empatiya va estetik qabul qobiliyatini shakllantiradi, shu bilan birga tafakkurni boyitadi. Musiqa orqali bola san'at va hayotdagi go'zallikka nisbatan ta'sirchanlik kasb etadi. Bolani musiqa madaniyatiga yaqinlashtirish uchun uning hissiyoti, qiziqishlari va badiiy didi ustidan ishlash zarur. Ayniqsa, maktabgacha yosh — musiqa madaniyatini o'zlashtirishda juda muhim bosqich hisoblanadi. Musiqa bilan faol shug'ullanish natijasida bolaning estetik ongi shakllanib boradi va bu jarayon uning keyingi ma'naviy kamolotiga kuchli asos bo'ladi².

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, qadimgi haykalchalar, yozuvlar, sozlar tasviri berilgan artefaktlar va madaniy yodgorliklarni arxeologik jihatdan o'rganish — milliy musiqa madaniyatimizning ildizlarini ochib berishda beqiyos ahamiyatga egadir. yetakchi arxeolog va musiqashunos olimlarning ilmiy izlanishlari tufayli biz qadimgi davrlarda musiqaning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, uning turli marosimlar va bayramlar bilan bog'liqligi hamda sozandalarning ijtimoiy maqomi haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lmoqdamiz. Ayniqsa, Afrosiyob, Ayritom, Termiz, Xorazm kabi qadimiy manzilalarda olib borilgan ekspeditsiyalar natijasida topilgan mashshoqlar haykalchalari va cholg'u asboblarning tasvirlari orqali bizning xalqimizda musiqa san'ati nechog'lik yuksak qadrlanganini ko'rish mumkin. Bu topilmalar nafaqat san'at tarixi uchun, balki umumiy madaniy merosimizni o'rganishda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, arxeologiya va musiqashunoslik o'rtasidagi ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, bunday kashfiyotlarni ilmiy asosda tahlil etish orqali musiqa madaniyatimizning yana ko'plab noma'lum sahifalarini ochish imkoni mavjud.

Shu o'rinda ijrochilik amaliyotida bastakorlar ijodini, ular yaratgan asarlarning badiiy ijodini o'rganish, ijro mahoratida ustoz-shogird an'analariga tayangan xolda ijro etish yo'llarini yo'lga qo'yish har bir ijrochining oldida turgan ulkan vazifalar turkumiga kiradi. Shunday ekan cholg'u ijrochilikdagi boy merosimizni asrab-avaylash oldimizda turgan ulkan vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati.

1. Mirziyoev Sh.M. We will build our great future together with our brave and noble people. T.: "Uzbekistan", 2017.
2. Асафьев, 1981 – Асафьев, Б. В. О симфонической и камерной музыке / Б. В. Асафьев. – Л.: Музыка, 1981. – 216 с.
3. Калантарова, 2019 – Калантарова, О. И. Николай Калинин / О. И. Калантарова. – М.: Согласие, 2019. – 368 с
4. Botirova X.T. Specific characteristics of the development of spiritual - moral qualities of students // Frontline Social Sciences and History Journal, 3(06), <https://doi.org/10.37547/social-fsshj-03-06-04-P. 20-30>

² Yo'ldoshev G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T. 2004. O'quvchilar qo'shig'i. Maktabgacha yoshdagi o'quvchilar uchun xalq adabiyoti. To'plovchi Elbek, Toshkent, 1937

5. Botirova X.T. In the practice of instrumental performance, students are taught to think independently and formation of features of creativity // MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN ISSN 2694-9970 118 Middle European Scientific Bulletin, Volume 33. -P. 52-58.
6. Botirova X.T. Scientific and theoretical views of central asian thinkers in music // Procedia of Theoretical and Applied Sciences Volume 4 | Feb 2023 ISSN: 2795-5621. Available: <http://procedia.online/index.php/applied/index>. -P. 54-59.
7. Botirova X.T. The Role of Pop Art in the Education of Students-Youth in the Spirit of Morality and Patriotism // Web of Scholars: Multidimensional Research Journal (MRJ) Volume: 01 Issue: 07 | 2022 ISSN: (2751-7543) <http://innosci.org>. -P. 87-90.
8. Botirova X.T. Activities of the "History and Criticism of Music" Department During the Years of Independence // MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN ISSN 2694-9970 118 Middle European Scientific Bulletin, Volume 33 | Feb-2023 <https://cejsr.academicjournal.io> -P. 118-121.
9. Botirova X.T. Aram xachaturian ijodida balet janr // "Лучшие интеллектуально'е исследования" Част-9_ Том-1_ Ноябрь - 2023. / <http://web-journal.ru/> -B. 119-124.
10. Botirova X.T. Cholg'u ijrochiligi tarixini tarbiyaviy ahamiyati // Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. 1-to'plam Noyabr-2023. -B. 106-110.
- 11.28. Botirova X.T. Musiqa madaniyati darslarida qo'shiq janrining ahamiyati // "Лучшие интеллектуальное исследования" Част-9_ Том-1_ Ноябрь -2023. <http://web-journal.ru/> -P. 142-145
12. Botirova X.T. The role of the orchestra leader in the preparation for the concert // International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from New York, USA <https://conferencea.org> June 28th 2022. -P. 122-125.
13. Botirova X.T. Performance of romantic works // International Multidisciplinary Conference Hosted from Manchester, England <https://conferencea.org> 25th June 2022. -P. 192-194.
14. Botirova X.T. Psychological process in orchestra class // International Conference on Developments in Education Hosted from Delhi, India <https://econferencezone.org> 21st July 2022. -P. 26-28.
15. Botirova X.T. Achieving sound balance in orchestral performance // International Conference on Developments in Education Hosted from Saint Petersburg, Russia <https://econferencezone.org> July 17th 2022. -P. 4-7.

16. Botirova X.T. Develop a child's ability to hear music // International Conference on Developments in Education Hosted from Bursa, Turkey <https://econferencezone.org> July 15th 2022. P. 19-23.
17. Botirova X.T. Encourage students to focus on conductor movements // International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from New York, USA <https://conferencea.org> June 28th 2022. -P. 126-128.
18. Botirova X.T. Success of works of uzbek composers // International Conference on Developments in Education Hosted from Saint Petersburg, Russia <https://econferencezone.org> July 17th 2022. -P. 1-3, 50.
19. Suxomlinskiy V.A. Pedagogika va musiqiy tarbiya. — Moskva: Prosvechenie, 2012. — 184 b.